



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.09.2025 yildagi PQ-275-son

Дата вступления в силу

13.09.2025

Дополнительная информация

Поделиться

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-76-son **Farmoni** ijrosini ta'minlash maqsadida qaror qilaman:

#### I. Maqsad

1. Ushbu qarorning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) faoliyatini samarali tashkil etish hisoblanadi.

#### II. Agentlik faoliyatini tashkil etish

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son **Farmoniga** muvofiq:

(a) "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) tashkil etilgani;

(b) Agentlik o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, malakalarni baholash sohalarida tashqi sifat nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organi etib belgilangani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

#### III. Tashkiliy chora-tadbirlar

3. Quyidagilar:

(a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining markaziy apparati tuzilmasi **1-ilovaga** muvofiq;

(b) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi to'g'risidagi nizom **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Agentlik direktori (B. Yuldashev):

(a) ikki hafta muddatda Agentlik shtat jadvali va xarajatlar smetasini tasdiqlasin;

(b) bir oy muddatda Agentlikni zarur nazariy va amaliy tajribaga ega bo'lgan, yuklatilgan vazifalarni professional darajada amalga oshira oladigan yuqori malakali kadrlar bilan to'ldirsin;

(v) Agentlikka yuklatilgan vazifalarning sifatli va belgilangan muddatlarda ijrosini ta'minlash choralarini ko'rsin.

#### IV. Qaror ijrosini tashkil etish, ta'minlash va nazorat

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov):

(a) Strategik islohotlar agentligi bilan birgalikda 2025-yilda Agentlik faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni Agentlikning asoslangan takliflariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirish ishlarini tashkil qilsin;

(b) 2026-yildan har yili Davlat budjeti parametrlarida Agentlik faoliyatini moliyalashtirish uchun zarur mablag'larni ko'zda tutsin.

6. Toshkent shahar hokimligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ikki hafta muddatda Toshkent shahri Yunusobod tumani Chingiz Aytmatov ko'chasi 1-A uy manzilida joylashgan bino va inshootlarni tegishli hududi bilan birga operativ boshqaruv huquqi asosida Agentlikka o'tkazsin.

7. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Agentlik bilan birgalikda ikki oy muddatda Agentlikka ajratilgan Toshkent shahri Yunusobod tumani Chingiz Aytmatov ko'chasi 1-A uy manzilidagi binoni rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari uchun zarur mablag'lar miqdori hamda moliyalashtirish manbai yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

8. Belgilansinki, Agentlik uning bino-inshootlarida rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari yakunlanguniga qadar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishli Toshkent shahri Olmazor tumani Universitet ko'chasi 7-uy manzilidagi binoga har bir xodim uchun tasdiqlangan me'yorlar asosida tekin foydalanish huquqi bilan vaqtincha joylashtiriladi.

*(8-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi PF-190-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.10.2025-y., 06/25/190/0985-son)*

9. Agentlik manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining ta'limni isloh qilish bo'yicha o'rinbosari X.U. Umarova zimmasiga yuklansin.


**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**


Toshkent sh.,  
2025-yil 8-sentabr,  
PQ-275-son

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2025-yil 8-  
sentabrdagi PQ-275-son qaroriga  
1-ILOVA

## O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining markaziy apparati

### TUZILMASI



**Izoh:**

1. Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni — 62 nafar.
2. Agentlik direktoriga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishgan holda, zarur hollarda, Agentlikning tasdiqlangan tuzilmasiga xodimlarining belgilangan umumiy soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi beriladi.
3. Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktori maqomiga ko'ra Agentlik direktori o'rinbosariga tenglashtiriladi.
4. Agentlik guruh rahbari, matbuot kotibi lavozim razryadlari va tarif koeffitsiyentlari bo'yicha Strategik islohotlar agentligining guruh rahbariga, bosh inspektorlar esa bosh inspektoriga tenglashtiriladi.
5. Yordamchi xodimlarning soni Strategik islohotlar agentligi uchun belgilangan tartibga asosan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2025-yil 8-  
sentabrdagi PQ-275-son qaroriga  
2-ILOVA

## O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi to'g'risidagi

### NIZOM

#### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining (keyingi o'rinlarda — Agentlik) maqomi, vazifalari va funksiyalari, vakolatlari, huquq va majburiyatlari, faoliyatini tashkil etish, shuningdek, hisobdorlik masalalari tartibini belgilaydi.

2. Agentlik o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, malakalarni baholash sohalarida tashqi sifat nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi hamda o'zining baholash jarayonini mustaqil va xolis amalga oshiradi.

3. Agentlik o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasi** va qonunlariga, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlariga, shuningdek, ushbu Nizom hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga asosan amal oshiradi.

4. Agentlikning o'z vakolatlari doirasida ta'lim sifatiga oid qabul qilgan qaror va buyruqlari respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiydir.

5. Agentlik davlat muassasasi hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga, shtamplarga, blankalarga, mustaqil balansga, o'z mulkiga, shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasida ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga, tijorat banklarida milliy va xorijiy valyutadagi hisobvaraqlariga ega bo'ladi.

6. Agentlikning rasmiy nomi:

(a) davlat tilida:

to'liq nomi — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi;

qisqartirilgan nomi — Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi yoki TSTMA;

(b) rus tilida:

to'liq nomi — Natsionalnoye agentstvo obespecheniya kachestva obrazovaniya pri Administratsii Prezidenta Respubliki Uzbekistan;

qisqartirilgan nomi — Natsionalnoye agentstvo obespecheniya kachestva obrazovaniya yoki NAOKO;

(v) ingliz tilida:

to'liq nomi — National Quality Assurance Agency for Education under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan;

qisqartirilgan nomi — National Quality Assurance Agency for Education yoki NQAAE.

7. Agentlik faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari tomonidan muvofiqlashtiriladi.

## **2-bob. Agentlik tuzilmasi**

8. Agentlik tuzilmasiga Agentlikning markaziy apparati hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti kiradi.

9. Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktori va direktor o'rinbosarlari Agentlik direktori tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

## **3-bob. Agentlikning asosiy vazifalari va funksiyalari**

10. Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

(a) idoraviy mansubligi, mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlari (keyingi o'rinlarda — ta'lim tashkilotlari)da tashqi baholashni amalga oshirish;

(b) ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati madaniyatini shakllantirish, ichki sifat nazorati mezonlari va tartiblarini takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish yuzasidan uslubiy tavsiyalar berish;

(v) ta'lim sifatini baholashning mezon va usullarini xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda ishlab chiqish hamda takomillashtirish;

(g) ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini o'rganish yuzasidan ilmiy va amaliy tadqiqotlarni olib borish hamda so'rovnomalar o'tkazish;

(d) ta'lim sifatini ta'minlash yo'nalishida xalqaro aloqalarni kengaytirish, ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish hamda milliy akkreditatsiya tizimining xalqaro darajada tan olinishini ta'minlash;

(j) ta'lim sifatini baholash bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida jamoatchilik va manfaatdor tomonlar ishtirokida yillik hisobotlarni e'lon qilib borish;

(z) ta'lim sohasidagi davlat dasturlari va strategiyalarida belgilangan maqsadli ko'rsatkich va natijalarga erishilishini tahlil qilish hamda tavsiyalar ishlab chiqish;

(i) ta'lim sohasi va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish hamda istiqbolli tashabbuslarni ilgari surish.

11. Agentlik o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

*(a) idoraviy mansubligi, mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, malakalarni baholash sohalarida tashqi baholashni amalga oshirish bo'yicha:*

(i) ta'lim tashkilotlarining belgilangan normativ-huquqiy hujjatlar hamda me'yor va qoidalarga amal qilishini tahlil qiladi;

(ii) idoraviy mansubligi, mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar ta'lim tashkilotlarini maxsus va kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazadi;

(iii) ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya va ilmiy-tadqiqot jarayonlari sifatini qiyosiy taqqoslash asosida ularning milliy reytingini yuritadi;

(iv) ta'lim dasturlarining kasbiy standartlarga va belgilangan malakalarga muvofiqligini baholaydi;

(v) ta'lim tashkilotlarida tenglik va inklyuzivlikni ta'minlash orqali barcha ta'lim oluvchilar uchun adolatli va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratilganini tahlil qiladi;

(vi) akkreditatsiyaga oid axborot tizimlarida ma'lumotlar almashish samaradorligini oshirish uchun davlat organlarining tegishli platformalari bilan integratsiya jarayonlarini yo'lga qo'yadi;

(vii) ta'lim tashkilotlarini tashqi baholash jarayonlariga "xavfni tahlil qilish" tizimini joriy qiladi;

*(b) ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati madaniyatini shakllantirish, ichki sifat nazorati mezonlari va tartiblarini takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish yuzasidan uslubiy tavsiyalar berish bo'yicha:*

(i) sifat madaniyatini shakllantirish va ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha ta'lim tashkilotlariga uslubiy jihatdan ko'maklashadi;

(ii) xalqaro tajribalar asosida ichki sifatni ta'minlashga oid mezonlar, indikator va qo'llanmalarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

(iii) ta'lim va ilm-fanda korrupsiya holatlarining oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

(iv) ta'lim sifatini ta'minlashga oid seminarlar, konferensiyalar, kurslar tashkil etadi hamda maslahat xizmatlarini ko'rsatadi;

(v) maxsus va kompleks davlat akkreditatsiyasiga jalb qilingan ekspertlar malakasini oshirib, ular faoliyatini doimiy nazorat qilib boradi;

*(v) ta'lim sifatini baholashning mezon va usullarini xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda ishlab chiqish hamda takomillashtirish bo'yicha:*

(i) ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganadi va ular asosida milliy ta'lim sifatini baholashning mezon va usullarini ishlab chiqadi hamda takomillashtirib boradi;

(ii) ta'lim sifatini baholash mezonlari va usullarini yangilab borish bo'yicha mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb qiladi;

(iii) milliy malaka tizimiga mos ravishda akkreditatsiya mezonlarini takomillashtirib boradi;

(iv) davlat akkreditatsiyasidan o'tgan ta'lim tashkilotlari va dasturlari reyestrini yuritadi;

*(g) ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini o'rganish yuzasidan ilmiy va amaliy tadqiqotlarni olib borish hamda*



*so'rovnomalar o'tkazish bo'yicha:*

(i) ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini o'rganish yuzasidan sotsiologik va boshqa so'rovnomalar o'tkazadi;

(ii) ta'lim sohasida islohotlarni sifatli amalga oshirishda respublika ijro etuvchi hokimiyat organlariga har tomonlama ko'maklashish, xalqaro tashkilotlar, konsalting kompaniyalar va xorijiy mutaxassislarning tavsiyalarini tahlil qilish va umumlashtirish, tashabbuslarning samarali implementatsiyasini ta'minlashga ko'maklashadi;

*(d) ta'lim sifatini ta'minlash yo'nalishida xalqaro aloqalarni kengaytirish, ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish hamda milliy akkreditatsiya tizimining xalqaro darajada tan olinishini ta'minlash bo'yicha:*

(i) respublikada tan olinadigan xalqaro, xorijiy va nodavlat akkreditatsiya tashkilotlariga qo'yiladigan talablarni belgilaydi va ularning reyestrini yuritadi;

(ii) ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish va ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish choralari ko'radi;

(iii) respublika ta'lim tashkilotlariga ularning xalqaro darajada e'tirof etilishi uchun uslubiy va amaliy tavsiyalar beradi;

(iv) milliy akkreditatsiya tizimining xalqaro darajada tan olinishini ta'minlash choralari ko'radi;

*(j) ta'lim sifatini baholash bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida jamoatchilik va manfaatdor tomonlar ishtirokida yillik hisobotlarni e'lon qilib borish bo'yicha:*

(i) ta'lim sifati va akkreditatsiya bilan bog'liq jarayonlarni raqamlashtirish choralari ko'radi;

(ii) ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholash hamda ularning mehnat bozoriga integratsiyasini o'rganish maqsadida Umummilliy ish beruvchilar so'rovnomasini o'tkazadi;

(iii) ta'lim tashkilotlari o'quvchi va talabalarining ta'lim sifati bo'yicha fikrlarini o'rganishga qaratilgan Umummilliy talabalar so'rovnomasini, shuningdek, jamoatchilikning ta'lim sifati bo'yicha fikrlarini o'rganishga qaratilgan so'rovnomalar o'tkazadi;

(iv) ta'lim sohasidagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan hamkorlikda ta'lim tizimi faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ochiqlikni ta'minlash hamda korporativ boshqaruv usullarini qo'llash bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

*(z) ta'lim sohasidagi davlat dasturlari va strategiyalarida belgilangan maqsadli ko'rsatkich va natijalarga erishilishini tahlil qilish hamda tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha:*

(i) ta'lim sohasidagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan hamkorlikda jamoatchilik, yetakchi xorijiy ekspertlar, konsultantlar va maslahatchilarni keng jalb qilgan holda tizimdagi eng dolzarb masalalar va muammolarga yechim topish choralari ko'radi;

(ii) o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, malakalarni baholash sohalaridagi barcha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini o'rganib, o'z taklif va e'tirozlarini bildiradi;

(iii) ta'lim sohasidagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan hamkorlikda ta'lim xizmatlari iste'molchilari, ilmiy-pedagogik jamoatchilik hamda davlat organlari va tashkilotlarining takliflari asosida ta'lim sohasiga oid istiqbolli tashabbuslarni ishlab chiqadi;

*(i) ta'lim sohasi va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish hamda ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va istiqbolli tashabbuslarni ilgari surish bo'yicha:*

(i) ta'lim va ilmiy sohada amaldagi qonunchilikni tizimli o'rganadi, tahlil qiladi va uni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

(ii) ta'lim sohasida ishlab chiqilgan qonunchilik hujjatlarini xalqaro tajriba va standartlar asosida tahlil qiladi.

12. Agentlik o'ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida amalga oshiradi.

#### **4-bob. Agentlikning huquq va majburiyatlari**

13. Agentlik o'ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

(a) o'z vakolati doirasida, shu jumladan, boshqa davlat organlari bilan birgalikda normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

(b) Vazirlar Mahkamasiga normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa hujjatlarni belgilangan tartibda kiritish;

(v) davlat organlari va tashkilotlaridan, shuningdek, respublikaning xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini orqali zarur statistik, tahliliy hamda boshqa ma'lumotlarni olish;

(g) o'z vazifalarini amalga oshirish uchun davlat organlari va tashkilotlaridan zarur ma'lumotlarni bepul, jumladan, "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiya platformasi orqali olish;

(d) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlaridan (NEMIS, EMIS) va oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimidan to'siqsiz foydalanish;

(j) davlat organlari va tashkilotlariga, jumladan, ta'lim tashkilotlariga ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar kiritish;

(z) mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy holat va qonunchilikdagi o'zgarishlar hamda xalqaro ta'lim makonidagi zamonaviy tendensiyalardan kelib chiqib, kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish talab va mezonlarini yangilab borish;

(i) ta'lim sifatini ta'minlash, akkreditatsiya, reyting va boshqa masalalar yuzasidan xalqaro va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik shartnomalarini tuzish;

(k) ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati bilan bog'liq o'rganishlar, monitoring va so'rovnomalar o'tkazish;

(l) ta'lim tashkilotlarida "xavfni tahlil qilish" tizimi asosida aniqlangan talab va shartlarning buzilishi holatlari yuzasidan Agentlik tomonidan ta'lim tashkilotiga taqdimnoma kiritish hamda kamchiliklarni bartaraf etish uchun muddat belgilash;

(m) aniqlangan kamchiliklar bo'yicha ta'lim tashkilotlariga choralar ko'rish bo'yicha muassis yoki yuqori turuvchi organiga taqdimnomalar kiritish;

(n) ta'lim tashkilotlarining davlat akkreditatsiyasini to'lov asosida amalga oshirish hamda to'langan mablag'larni akkreditatsiyani o'tkazish bilan bog'liq (jumladan, jalb qilingan mutaxassislar mehnatiga haq to'lash) xarajatlarni qoplashga yo'naltirish;

(o) ta'lim sifatini ta'minlash bilan bog'liq standartlar, mezonlar va indikatorlarni amaliyotga tatbiq qilishdan oldin ta'lim tashkilotlarida tajriba-sinovdan o'tkazish;

(p) mahalliy va xorijiy ekspertlar, shuningdek, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ta'lim tashkilotlari va boshqa tashkilotlar vakillarini (asosiy ish joyidagi ish haqi saqlangan holda) jalb etish, ular ishtirokida ekspert komissiyalari va ishchi guruhlar tuzish;

(r) ekspert komissiyalari va ishchi guruhlar tomonidan ta'lim sohasidagi joriy holatni chuqur tahlil qilish, baholash va taklif ishlab chiqish bo'yicha texnik topshiriqlarni shakllantirish hamda konsalting kompaniyalarni jalb etgan holda tegishli ta'lim sohasini isloh qilish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish;

(s) jalb qilingan xorijiy va mahalliy ekspertlarga ish haqini tegishli shartnomaga muvofiq milliy yoki chet el valyutasida, shu jumladan, mablag'larni ularning xorijdagi hisobvaraqlariga o'tkazish orqali to'lash;

(t) qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan pulli xizmatlar ko'rsatish;

(u) Agentlik zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida yetakchi xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish maqsadida Agentlik xodimlarini, shuningdek, ekspert komissiyalari va ishchi guruhlar a'zolarini hamda shartnoma asosida jalb etilgan boshqa shaxslarni xorijiy xizmat safarlariga yuborish;

(f) o'z faoliyati yo'nalishlari bo'yicha konsalting va ekspert-tahliliy xizmatlar ko'rsatish, ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun tashkiliy-huquqiy tuzilmalarni tashkil etish;

(x) tegishli davlat organlari bilan birgalikda ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish va ta'lim jarayonlarini yaxshilashga taalluqli masalalar yuzasidan qonunchilikda belgilangan choralarni qo'llash.

14. Qonunchilik hujjatlariga muvofiq, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi topshiriqlariga asosan Agentlik boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

15. Agentlik quyidagilarga majbur:

(a) zimmasiga yuklatilgan vazifalarni sifatli va o'z vaqtida bajarish;

(b) davlat akkreditatsiyasini qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya etgan holda amalga oshirish;

(v) akkreditatsiya jarayonlarida va ularning natijalarini ochiq holda e'lon qilish orqali shaffoflikni ta'minlash;

(g) akkreditatsiya qarorlaridan norozi bo'lganlar uchun shikoyat va apellyatsiya berish jarayonlarini tashkil etish;

(d) ijro intizomini ta'minlash.

### **5-bob. Agentlik faoliyatini tashkil etish**

16. Agentlik faoliyatiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan direktor rahbarlik qiladi.

17. Agentlik direktori maqomi, mehnatga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish, tibbiy va transport xizmati ko'rsatish shart-sharoitlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi o'rinbosariga tenglashtiriladi.

18. Agentlik direktori ikki nafar o'rinbosarga ega bo'ladi.

19. Direktor o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

20. Agentlik direktori o'rinbosarlari va xodimlari mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish, tibbiy xizmat ko'rsatish shart-sharoitlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligining tegishli xodimlariga tenglashtiriladi.

21. Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktori maqomiga ko'ra Agentlik direktori o'rinbosariga tenglashtiriladi hamda unga Agentlik direktori o'rinbosarlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish shart-sharoitlari qo'llanadi.

22. Agentlikning boshqaruv xodimlari Agentlik direktori tomonidan to'g'ridan-to'g'ri suhbat asosida lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

23. Agentlikka xorijiy mutaxassis, ekspert, konsultant va maslahatchilarni jalb qilish va ishga qabul qilish shartnoma asosida Agentlik direktori tomonidan amalga oshiriladi.

24. Agentlik direktori:

(a) Agentlik faoliyatiga umumiy boshqaruvni amalga oshiradi hamda Agentlik tashkiliy-xo'jalik faoliyati uchun javobgar hisoblanadi;

(b) o'z o'rinbosarlari va Agentlik tizimidagi tashkilotlarning mansabdor shaxslari vakolatlarini hamda shaxsiy javobgarlik darajasini belgilaydi, shuningdek, vazifalarni taqsimlaydi;

(v) davlat organlari va tashkilotlarida, shuningdek, xalqaro tashkilotlarda Agentlik nomidan ish ko'radi;

(g) Agentlik xodimlari va ta'lim tashkilotlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;



(d) Agentlikka yuklatilgan vazifalarning samarali bajarilishi uchun shaxsiy javobgar hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisobot beradi;

(j) Agentlik xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tasdiqlaydi;

(z) Agentlikning ish rejalari, hisobotlari va uslubiy-ishlanmalarini tasdiqlaydi;

(i) Agentlik xodimlari bilan mehnat shartnomalarini, shuningdek, xorijiy va mahalliy ekspertlar bilan fuqarolik-huquqiy shartnomalarni tuzadi va bekor qiladi;

(k) Agentlik xodimlarining lavozim (funktional) vazifalarini taqsimlaydi;

(l) ijro intizomiga, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonunchilik hujjatlariga muvofiq ko'rib chiqish muddatlari va tartibiga qat'iy rioya etilishini ta'minlaydi;

(m) Agentlik xodimlarini rag'batlantirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tartibi va shakllarini, ularning lavozim maoshiga ustama va qo'shimcha to'lovlarni belgilaydi, xodimlarga moddiy yordam ko'rsatish bo'yicha buyruqlar qabul qiladi;

(n) Agentlik nomidan shartnoma va kelishuvlar tuzadi, Agentlik aktivlarini tasarruf etadi, mulkni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qiladi, moliyaviy va boshqa turdagi hujjatlarni imzolaydi;

(o) qonunchilik hujjatlari va mazkur Nizomga muvofiq o'ziga yuklatilgan boshqa masalalarni hal etadi.

25. Agentlik direktori o'rinbosarlari tegishli yo'nalishlar bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish va vazifalar o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlash choralari ko'radi hamda direktor topshirig'iga ko'ra uning alohida funksiyalarini bajaradi.

26. Agentlik direktori bo'lmagan yoki o'z vazifalarini bajarishi mumkin bo'lmagan hollarda direktor o'rinbosarlaridan biri direktor vazifasini vaqtincha bajarib turadi.

### **6-bob. Agentlik faoliyatini moliyalashtirish**

27. Quyidagilar Agentlik faoliyatini, shu jumladan, Agentlik tomonidan tashkil etiladigan ekspert komissiyalari va ishchi guruhlar, shartnoma asosida jalb etiladigan mahalliy va xorijiy mutaxassislariga to'lovlarni amalga oshirish hamda Agentlik xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirishning asosiy manbalari hisoblanadi:

(a) O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;

(b) Agentlikning asoslangan takliflariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi jamg'armasi hisobidan ajratiladigan mablag'lar;

(v) akkreditatsiyadan o'tkazishdan, shuningdek, shartnoma asosida boshqa pulli xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlar;

(g) o'z faoliyati yo'nalishlari bo'yicha shartnoma asosida konsalting, ekspert-tahlil va boshqa xizmatlarni ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar;

(d) davlat ilmiy-texnikaviy dasturlari doirasida o'tkaziladigan grant tanlovlari natijalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar uchun ajratiladigan mablag'lar;

(j) xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlarning grantlari hamda maqsadli mablag'lari;

(z) Agentlikning budjetdan tashqari mablag'lari, shu jumladan, vaqtincha bo'sh turgan budjetdan tashqari mablag'larini tijorat banklarining depozitlariga joylashtirishdan tushadigan daromadlar;

(i) homiylik va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

28. Agentlik o'zining vaqtincha bo'sh turgan budjetdan tashqari mablag'lari, shu jumladan, xorijiy valyutadagi mablag'larini O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklarining depozitlariga joylashtirish va olingan daromadlarni tasarruf etishi mumkin.

### **7-bob. Agentlikning hisobdorligi**

29. Agentlik o'z faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi hamda o'z faoliyati doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobdordir.

30. Agentlik har yil yakunida (zarur hollarda navbatdan tashqari) O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga o'ziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, amalga oshirilgan ishlar haqida hisobot kiritadi.

31. Agentlik ta'lim sohasini isloh qilish holati, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, islohotlarni amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan salbiy omillar va ularni bartaraf etish yo'llari, shuningdek, ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari faoliyatini tashqi baholash mexanizmlarini takomillashtirish hamda ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sifatini oshirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib boradi.

### **8-bob. Agentlikning mahalliy va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari hamda faoliyatini tashkil etishning boshqa masalalari**

32. Agentlik o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda davlat organlari, ta'lim tashkilotlari, ilmiy muassasalar, tadqiqot, tahlil markazlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro yaqindan hamkorlik qiladi.

33. Xalqaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishda Agentlik vakolati doirasida quyidagi huquqlarga ega:

(a) xorijiy davlatlarning ta'lim sohasidagi davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qilish va ular bilan shartnomalar (bitim, memorandum va boshqalar) tuzish;

(b) ta'lim sohasida xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish yoki ularga a'zo bo'lish;

(v) Agentlik xodimlarini xorijiy mamlakatlarga stajirovka, amaliyot o'tash, konferensiya va treninglarda ishtirok etish uchun yuborish;

(g) o'z vakolati doirasida boshqa xorijiy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish.

34. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari Agentlikka har tomonlama ko'maklashadi, shu jumladan, uning so'roviga ko'ra markaziy apparat va tizim tashkilotlari xodimlarining oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni saqlab qolgan holda ekspert sifatida yuborilishini ta'minlaydi.

35. Agentlik xodimlarining xizmat safarlari amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

36. Agentlikni qayta tashkil etish va tugatish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni asosida amalga oshiriladi.

37. Mazkur Nizom talablarini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

38. Mazkur Nizomda nazarda tutilmagan masalalar tegishli qonunchilik hujjatlari, o'rnatilgan tartibga muvofiq Agentlik buyruqlari hamda boshqa hujjatlar bilan tartibga solinadi.

*(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2025-y., 07/25/275/0825-son; 28.10.2025-y., 06/25/190/0985-son)*



**Tezkor va qulay  
onlayn mikroqarz**

**100 mln**

Kredit foizi: 26%-30% gacha  
Kredit muddati: 2-48 oygacha

